

## DINIY-MA`RIFIY MATNLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

*Zayniddinova Masturaxon Sherali qizi*

*Termiz davlat universiteti Lingvistika(o'zbek tili)*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola diniy-ma`rifiy matnlarning o`ziga xosligi, ularning lisoniy xususiyatlarini muhokama etishga bag`ishlanadi. Maqola yetuk olimlarning nazariy qarashlariga asoslangan holda olib boriladi.

**Kalit so`zlar:** diniy, ijtimoiy-diniy, islomiy-diniy, diniy uslub, diniy terminlar, diniy matn, teolingvistika.

### KIRISH

Har qanday tilning o`ziga xos lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari o`sha til iste`molidan mavjud bo`lgan so`z va so`z birikmalarida, ayniqsa, leksikasida yorqin namoyon bo`ladi. Har bir xalqning o`z makoni va zamonavi mavjudligi, o`zining muayyan olamga egaligi o`sha tillarda o`ziga xos til birliklari shakllanishiga sabab bo`ladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Professor M.E.Umarxo`jaevning diniy uslub to`g`risidagi bir qator ilmiy va ilmiy-publitsistik maqolalari va diniy terminlarning qisqacha lug`ati, shuningdek, diniy matnlarda ekzotik leksikaning tahliliga bag`ishlangan professor N.M.Ulug`ovning dissertatsion ishi, Sh.T.Maxmaraimovanning olamning milliy tasvirida teomorf metaforaning kognitiv aspektini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqoti, Sh.M.Sultonovanning “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari”ni tadqiq qilgandissertatsion ishi, M.R.Galievaniing “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-ma`rifiy tafakkurning aks etishi” mavzusida yoqlangan doktorlikdissertatsiyasi bu borada qilingan ko`zgako`ringan ishlardandir.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

M.R.Galievanning “Dunyoning lisoniy tasvirida Diniy-ma`rifiy tafakkurning aks etishi” mavzusida yoqlangan doktorlik dissertatsiyasida til va din o`rtasidagi munosabatni tilning barcha sathlarida o`rganuvchi tilshunoslikning zamonaviy yo`nalishi (til va madaniyat, til va tafakkur, til va jamiyat munosabatlari masalalari bilan shug`ullanuvchi [1]) teolingvistikaga ajratish zarur degan g`oyani ilgari suradi, “til – madaniyat – din» munosabati muammosiga bag`ishlangan majmuaviy tadqiqot [1]” olib boradi.

Mazkur ishda til va dinning o`zaro aloqalari masalalari tadqiq qilinadi, muammoga oid yondashuvlar ko`rsatilib, zamonaviy lingvistik fan–teolingvistikaning

nazariy va empirik asosini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari tilshunos o'z ishida Diniy-ma'rifiy markerlangan til birliklaritushunchasini kiritib, konseptlarini aniqlaydi va tasniflash mezonlarini ishlab chiqadi, dunyoning diniy tasvirining lisoniy voqelanishi xususiyatlarini leksik, frazeologik, paremiologik birliklar, ularning nutqda qo'llanishiga aloqador lingvistik (“original tildan o'zlashtirish; sakral kitoblar va adabiyotlar tarjimasini; diniy-mifologik markerlangan til birliklarining ekvivalentliligi va ekvivalentsizligi; har bir tilning diniy markerlangan frazeologik birliklar semantik strukturasi; d) u yoki bu Diniy-ma'rifiy obraz va syujetlarning turli tillarda ta'kidlanishi” [1]) va ekstralingvistik omillar (“o'rganilayotgan til mamlakati hududida u yoki bu tilning yetakchiligi; diniy, ibodat tillarning muqaddaslashuvi; turli mamlakatlar hududida sakral kitoblar tarjimasining paydo bo'lish davri; turli xalqlarning konfessional mansubligi; milliy dunyoqarash va an'analarning o'ziga xosligi; ye) o'rganilayotgan til mamlakatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi [2]”) va badiiy matnlar orqali aniqlab izohlaydi, shuningdek, ularning verballashuvini tahlil qiladi.

M.R.Galieva zamonaviy o'zbek tilshunosligida, xususan, teolingvistikada diniy til va matnlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganuvchi hamda diniy dunyo tasvirini umumadabiy tilda aks etishini o'rganuvchi ikkita asosiy yo'nalish (muqaddas matnlar va dindorlar nutqi materiali asosida diniy tilning tadqiqi va diniy-mifologik tafakkur dunyoning lisoniy tasvirida ifodalanishining xususiyatlarining tahlili) [4] ajratib beradi va Diniy-ma'rifiy markerlangan til birliklarining etimologik va mavzuiy tasniflarini ishlab chiqib, ularning dunyo lisoniy tasviri shakllanishida kognitiv-konseptual, madaniy va ramziy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Diniy-ma'rifiy konseptlarning majmuasini aniqlab, ularni tasniflash tamoyillarini ishlab chiqadi va ushbu konseptlarning badiiy matnda ifodalanishini ochib beradi.

Tilshunoslikda eng bahstlab hodisa bo'lgan bugungi eng muhim zamon masalasidagi yo'nalishlar deb esa muallif til va madaniyatning o'zaro munosabati, til va diniy ta'limotlarning o'zaro aloqasi etnopsixolingvistika, antropolingvistika, lisoniy falsafa kabi tilshunoslikning zamonaviy tarmoqlarini sanaydi [3].

Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining ifodalanishini ko'rsatarkan bunda, temporal so'zlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qiladi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, insoniyat tamaddunining asosiy shakli sifatidadin deyarli insoniyatning o'zi bilan birga baravar rivojlanib kelmoqda. Tarixdan ma'lumki, diniy madaniyat kishilik jamiyatiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy omil sifatida din jamiyatning “nafaqat iqtisodiy-siyosiy, ilmiy hayoti, falsafasi va san'atiga, balki psixologiyasida ham insonning axloqiy jihatlari va mafkurasida ham sezdirmasdan, ammo muntazam ravishda o'z aksini topib, ruhiyatining o'zgarishida” namoyon bo'lib boraveradi.

Madaniyatning iqtisod, siyosat, xuquqshunoslik, ma'naviyat, san'at, falsafa va fan kabi ko'plab boshqa universal sohalarini ham din ham inson va jamiyatning barcha qatlamlari va darajalarini qamrab oladi. U tarixning barcha davrlarida, barcha xalqlarda va madaniyatning har xil turlarida mavjudligicha qolaveradi. Shu boisdan ijtimoiy jarayonlarni hisobga olib islomiy-diniy leksikani o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Galieva M.R. “Dunyoning lisoniy tasvirida Diniy-ma'rifiy tafakkurning aks etishi”, Farg'ona, 2019, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. B.6.
- Maxmaraimova Sh. O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati. – Toshkent: Cho'lpon, 2018. – 99 b.
- Sultonova Sh.M. Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniyxususiyatlari, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiyasi, Farg'ona, 2019.
- Uluqov N.M. O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi., Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, Toshkent, -1997. [www.disnatlib](http://www.disnatlib)
- Umarxo'jaev M.E. Diniy atamalar va iboralar. izohli lug'ati, G'.G'ulom nomidaginashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2016 y.